
“QO‘RG‘ONCHA” MAHALLASIDA NAVRO‘Z BAYRAMI

Navro‘z umumxalq bayrami munosabati bilan mamlakatimizda “Har kuning Navro‘z bo‘lsin, jonajon O‘zbekistonim!” shiori ostida bayram tadbirlari bo‘lib o‘tmoqda. Ayniqsa, Navro‘z bayram shukuhi mahallalarda, eng olis qishloqlarda aholi o‘rtasida yuqori kayfiyatda nishonlanmoqda.

Toshloq tumanidagi mahallalarda ham Navro‘z bayram tadbirlarida aholi uchun dasturxon yozilib, doshqozonlarda sumalak va osh tayyorlanmoqda.

“Qo‘rg‘oncha” MFYdagi bayram tadbirida ham fayzli dasturxon yozilib, sumalak, palov, ko‘k somsa kabi bahoriy taomlar tortildi. Tadbirda yoshi ulug‘ onaxonalar shukuronalik bilan duoga qo‘l ochib yurtimiz tinchligi, osoyishtaligi bardavom bo‘lishini tiladilar.

2023-03-16 17:35:50